

**"Kwangjin Autosystems" MCHJ bosh direktorining
MUROJAATI**

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

Korrupsiya bu taraqqiyot kushandasi, shu sababdan barcha davlatlar hukumatlari, dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

O'zbekiston ham bu xavfdan xoli emas va korxonamiz ishchi xodimlari ham befarq bo'lmasliklari, mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan korrupsion omillarga barham berishga qaratilgan keng ko'lamli huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga faolroq javob qaytarishimiz lozim.

Korxonamizda ham shu jamiyatning bir a'zosi sifatida **"Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati"**, **"Odob-axloq kodeksi"**, **"Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati"** kabi 15 dan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar qabul qilindi.

Shuningdek, korxonada ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan kompleks ichki nazorat tizimi joriy etildi.

Mehnat va xo'jalik munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishda preventiv choralarni kuchaytirish va mazkur yo'nalishni bilimlarni oshirish maqsadida **ISO 37001:2016** xalqaro standarti talablari bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jamoamiz, O'zbekiston xalqi va hamkorlarimiz oldidagi korxonamizga yuklangan mas'uliyatni anglagan holda korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

"Kwangjin Autosystems" MCHJ o'z navbatida, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni vijdonan bajarilishi va qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini kafolatlaydi.

Shunday ekan, barchamiz korrupsiya holatlarni oldini olish va unga chek qo'yish uchun mas'ul ekanligimizni anglashimiz zarur.

Hurmatli hamkasb va hamkorlarimiz, ish yuritishda xalqaro standartlarga hamda korrupsiyaga qarshi tamoyillarga rioya qilishga va shu bo'lib turgan taqdirda, ehtimoliy qonunbuzarliklarga bizga xabar berishga yana bir bor chorlab qolamiz.

Hurmat bilan,

Korxona bosh direktori

N.T. Mirzayev